

O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasi
Farg'ona viloyati muassasasining
USTAVI

1- modda.
Umumiy qoidalar

1.1. O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasi direksiyasi (bundan buyon matnda Assotsiatsiya deb yuritiladi) Farg'ona viloyatida Muassasa (bundan buyon matnda Muassasa deb yuritiladi) tashkil qilish to'g'risida qaror qabul qildi.

1.2. Muassasaning to'liq nomi:

- Lotin yozuvidagi o'zbek tilida - O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasining Farg'ona viloyati muassasasi.
- Rus tilida - Учреждение Ассоциации банков Узбекистана Ферганской области.

Muassasaning qisqartirilgan nomi:

- Lotin yozuvidagi o'zbek tilida - O'BANing Farg'ona viloyati muassasasi.
- Rus tilida - Ферганской Учреждение АБУ.

1.3. Muassasaning manzilgohi:

O'zbekiston Respublikasi, Farg'ona sh., A.Navoiy ko'chasi, 47 uy.

2- modda.
Muassasaning yuridik maqomi

2.1. Muassasa O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasining alohida tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi, qonun bilan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan kundan boshlab yuridik shaxs huquqiga ega bo'ladi, o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga, Ustaviga va O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasining farmoyishlariga tayanadi. Muassasa o'z nomidan shartnomalar tuzishi, mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi, majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2.2. Assotsiatsiya o'z mulki hisobidan Muassasaga asosiy va aylanma mablag'lar ajratadi. Muassasa Assotsiatsiya tomonidan belgilangan vakolatlar doirasida o'ziga berilgan mulklarni mustaqil tasarruf etish huquqiga ega. Muassasa bankda depozit hisob varaq ochadi. Muassasa mustaqil balansga ega.

Muassasa Assotsiatsiyaning majburiyatlari bo'yicha unga berilgan barcha mulklari bilan javob beradi.

2.3. Muassasa Assotsiatsiya direksiyasi tomonidan ishlab chiqilgan va O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasi Bosh direktori tomonidan tasdiqlangan smeta asosida faoliyat ko'rsatadi.

2.4. Muassasa O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasi Muassasasi deb nomlangan o'zining muxriga va burchak tamg'asiga, Assotsiatsiya emblemasi tushirilgan tovar belgisiga, shuningdek rekvizitlarga ega bo'ladi.

2.5. Muassasaning rasmiy tili o'zbek tili, ishchi tili esa o'zbek va rus tillari hisoblanadi.

3-modda.
Muassasa faoliyatining maqsadi va mazmuni

3.1. Muassasa Assotsiatsiyaning ta'sis xujjatlarida, mazkur Ustavda belgilangan ustav vazifalarini bajarish, shuningdek bank tizimini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlarini, hukumat qarorlarini bajarilishiga ko'maklashish, Farg'ona viloyatidagi banklarga malakali huquqiy, kadrlar bo'yicha va texnik yordam ko'rsatish maqsadida tashkil qilinadi.

3.2. Muassasa bevosita Assotsiatsiyaning ta'sis xujjatlari va ushbu Ustavda belgilangan faoliyatning barcha yo'nalishlari bo'yicha ish olib boradi. Shu munosabat bilan Muassasa o'z hududida:

- Assotsiatsiya manfaatlarini namoyon qiladi;
- Assotsiatsiyaning normal faoliyati uchun zarur tijorat va boshqa axborotlarni yig'adi, qayta ishlaydi va Assotsiatsiyaga etkazadi;
- Assotsiatsiyaning faoliyati to'g'risidagi axborotlarni tarqatadi;
- Iqtisodiy islohotlarni o'tkazish davrida pul tizimining barqarorligini ta'minlashda tijorat banklarining rolini oshirishga, xususi sektorning vujudga kelishiga va xalq xo'jaligining ustivor sohasini rivojlantirish dinamikasini boshqarishga ko'maklashadi;
- Bank ishini rivojlantirishda xokimiyat va boshqaruv organlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan iqtisodning, pul muomalasining barqarorligi bo'yicha va pul-kredit siyosatini amalga oshirish yuzasidan o'tkaziladigan tadbirlarda qatnashadi;
- Bank tizimining xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirishga ko'maklashadi;
- Bozor iqtisodiyoti sharoitida xorijiy va maxalliy tajribalarni o'rganish asosida banklarning ishini tashkil qilishda yordam ko'rsatadi;
- Bank ishini halqaro andozalarga o'tkazishni amalga oshiradi;
- Yirik dasturlarni hal etish uchun banklarga ularning resurslarini birlashtirishga ko'maklashadi;
- Bank mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirishda qatnashadi;
- o'zaro ishonchni, banklar nufuzini, ular xabarlar va mutaxassislarining aloqalarini ishonchlilik va do'stona munosabatni, banklarning o'zaro va mijozlar bilan munosabatlaridagi ishchan hamkorlikni qo'llab-quvvatlashni amalga oshiradi;
- banklarning xalqaro hamkorlik qilishiga, xalqaro moliya institutlari, xorijiy banklar, ularning ittifoqlari va boshqa birlashmalari bilan aloqalarini rivojlantirishga ko'maklashadi;
- qonun chiqaruvchi va ijro qiluvchi organlarda, Markaziy bankda, huquqni muxofaza qiluvchi va moliya organlarida banklar manfaatini namoyon qiladiv himoya qiladi;
- Assotsiatsiya raxbar organlarining qarorlariga muvofiq Assotsiatsiyaning maqsad va vazifalaridan kelib chiqadigan boshqa ishlarni bajaradi.

3.3. Muassasa o'z hududida Assotsiatsiyaning ta'sis xujjatlarida belgilangan Assotsiatsiyaning tarkibini, Assotsiatsiya kompaniyalari tarkibini shakllantirishga aloqador bo'lgan o'xshash vakolatlarni ham amalga oshiradi.

4- modda **Muassasaning ta'sischisi**

4.1. Muassasaning ta'sischisi bo'lib, O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasi hisoblanadi.
Manzili: Toshkent sh., 700000. A.Qayumov ko'chasi, 24.

5- modda.
Xarajatlarni qoplanishi tartibi

5.1. Muassasa xarajatlari Muassasaning xo'jalik faoliyati yuritishi natijasida olingan foyda hisobidan, shuningdek Assotsiatsiya mablag'lari hisobidan Muassasa xodimlariga ishhaqi to'lash, joriy xarajatlar uchun ajratiladigan mablag'lari hisobidan qoplanadi.

6- modda.
Muassasaning mulki

6.1. Muassasaning mulki O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasi tomonidan Ustav jamg'armasi uchun berilgan mulklar va moliyaviy mablag'lar hisobidan hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan holda kelib tushadigan mablag'lar hisobidan shakllanadi.

6.2. Muassasaning Ustav jamg'armasi 20 000 000 (yigirma million) so'mni tashkil etadi.

7- modda.
Muassasaning jamg'armalari

7.1. Muassasaning Assotsiatsiyadan va boshqa faoliyatdan oladigan mablag'ning bir qismi maxsus jamg'armalar tashkil qilish, davlat byudjeti bilan hisob-kitob qilish uchun sarflanadi.

7.2. Muassasa quyidagi jamg'armalarni tashkil qiladi:

- Zahira jamg'armasi;
- Ishlab chiqarish, fan va texnikani rivojlantirish jamg'armasi;
- iste'mol jamg'armasi;
- taqdimot jamg'armasi.

Jamg'armalarning tarkibi, yo'nalishi, tashkil qilish manbaalari va ularning har biridan foydalanish tartibi qonunchilikka muvofiq Muassasaning Oliy boshqaruv organi tomonidan belgilanadi.

7.3. Muassasa o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan, o'zi to'liq tasarruf etishi mumkin bo'lgan boshqa jamg'armalarni tashkil qilish huquqiga ega.

8- modda.
Assotsiatsiyaning huquqlari

8.1. Assotsiatsiya quyidagi huquqlarga ega:

- ushbu Ustavda belgilangan tartibda Muassasani boshqarishda qatnashish;
- ushbu Ustavda belgilangan hajm va shaklda muassasaning faoliyat natijalarida qatnashish;
- Muassasaning faoliyatiga, uning mulki, foydasi va zararlariga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni olish;
- Assotsiatsiya Kengashida ko'rib chiqish uchun Muassasaning faoliyati samaradorligini oshirish, mavjud moliyaviy mablag'larni ko'paytirishga qaratilgan takliflarni kiritish.

9- modda.
Muassasaning boshqaruv va nazorat organlari

9.1. Muassasaning boshqaruv va nazorat organi bo'lib,

- Muassasaning Oliy boshqaruv organi O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasi;
- Muassasa direktori;
- Assotsiatsiyaning taftish komissiyasi hisoblanadi.

9.2. Assotsiatsiyaning mutloq vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- Muassasa faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilash, uning reja va hisobotlari, ularning bajarilishini tasdiqlash;
- Muassasa Ustavini o'zgartirish va to'ldirish;
- direktorni, bosh hisobchini tayinlash;
- Muassasaning yillik natijalarini tasdiqlash, Taftish komissiyasining hisobotlarini tasdiqlash, foydaning taqsimlanishi va foydalanish yo'nalishlarini, zararlarni qoplash tartibini belgilash;
- Boshqa korxonalar va tashkilotlardan qimmatli qog'ozlarni sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;
- Yangi korxonalar, shu jumladan xorijiy sheriklar ishtirokidagi korxonalarni tashkil qilish;
- sho'ba korxonalarini tashkil qilish, filial va vakolatxonalar tashkil qilish, qayta tashkil qilish va tugatish, ularning Nizom (Ustav)larini tasdiqlash, Muassasaning Assotsiatsiya (Birlashma)ga kirishi, undan chiqishi to'g'risidagi masalalarni hal qilish;
- Muassasaning mansabdor shaxslarini mulkiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi qarorlarni chiqarish;
- Muassasaning ichki xujjatlarini tasdiqlash, uning tashkiliy tuzilishini belgilash;
- direktorning, shuningdek Muassasa tomonidan tashkil qilingan korxonalar, filial va vakolatxonalar mansabdor shaxslarining mehnatiga haq to'lash shartlarini belgilash;
- Muassasa direktori va xodimlari o'rtasida kelib chiqqan nizoli holatlarni ko'rib chiqish va ularni hal qilish choralarini ko'rish;
- Muassasa faoliyatini tugatish, qayta tashkil qilish to'g'risida qaror qabul qilish, tugatish komissiyasini tayinlash, tugatish balansini tasdiqlash.

Assotsiatsiya qarori Muassasa mansabdor shaxslari va xodimlarining bajarishi uchun majburiy hisoblanadi.

9.3. Muassasaning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish va Assotsiatsiya tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni bajarish direktor tomonidan amalga oshiriladi.

Direktor:

- Muassasa faoliyatining reja-istiqbolini, byudjetini ishlab chiqadi va ularni ko'rib chiqish, tasdiqlash uchun Assotsiatsiyaga taqdim etadi;
- Muassasaning barcha ichki me'yoriy aktlari (nizom, yo'riqnoma va boshqalar)ni ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun Assotsiatsiyaga taqdim etadi;
- Assotsiatsiya tomonidan qabul qilingan dasturlarning bajarilishini tashkil qiladi;
- Muassasaning maqsad va vazifalaridan kelib chiqadigan moliya va xo'jalik ishlarini amalga oshiradi;
- Assotsiatsiya vakolatlariga tegishli bo'lgan masalalarni dastlabki tartibda ko'rib chiqadi, ular bo'yicha tegishli material va takliflar tayyorlaydi;
- Ushbu Ustavda Assotsiatsiyaga berilgan vakolatlardan tashqari Muassasa faoliyatiga oid bo'lgan barcha masalalarni hal qiladi.

Direktor vakolatlariga amaldagi qonunchilikka muvofiq Muassasa xodimlarining mehnatiga haq to'lash normasi, tizimi, miqdorini, shuningdek boshqa qo'shimcha to'lovlarni aniqlash kiradi.

Direktorning qarori buyruk bilan rasmiylashtiriladi.

9.4. Muassasaning moliyaviy va xo'jalik faoliyatini nazorat qilishni Assotsiatsiya taftish komissiyasi amalga oshiradi.

Taftish komissiyasi raisi va a'zolari Assotsiatsiya tomonidan tayinlanadi. Taftish komissiyasi o'z faoliyati uchun Assotsiatsiya oldida javob beradi va unga o'tkazilgan taftishlar

to'g'risida hisobot, shuningdek yillik hisobotlar bo'yicha xulosa taqdim etadi.

10-modda.

Moliyaviy faoliyat, buxgalterlik hisobi va hisobot

10.1. Muassasaning moliyaviy faoliyati yillik moliyaviy reja asosida amalga oshiriladi. Moliyaviy yil bo'lib to'liq kalendar yil hisoblanadi.

10.2. Tezkor buxgalterlik hisobi va hisoboti O'zbekiston Respublikasining pul birligida, zarur hollarda chet el valyutasida olib boriladi.

10.3. Har bir moliyaviy (kalendar) yil yakuni bo'yicha Muassasa direktori Muassasaning iqtisodiy faoliyati va moliyaviy holati bo'yicha yillik hisobot va ayrim hollarda O'zbekiston pul birligida va chet elvalyutasi (EAV) da yillik balans hamda foyda va zararlar bo'yicha hisobot tuzadi.

10.4. Muassaning iqtisodiy va moliyaviy faoliyati to'g'risidagi yillik hisobot, shuningdek balans, foyda va zararlar bo'yicha hisobot moliyaviy yil tugallanganidan so'ng ikki oy ichida Taftish komissiyasi va Assotsiatsiyaga taqdim etiladi.

10.5. Assotsiatsiya Muassasaning faoliyati to'g'risidagi har qanday ma'lumot va axborotlarni olish huquqiga ega, shuningdek xohlagan vaqtda Muassasaning xujjatlari bilan tanishishi va uning moddiy ahvolini tekshirishi mumkin. Muassasaning moliyaviy ahvolini tahlil qilish uchun yiliga kamida bir marotaba mustaqil auditor (auditorlik firmasi) tomonidan tekshirish o'tkaziladi.

10.6. Muassasa Assotsiatsiyaga o'zining faoliyati to'g'risida Assotsiatsiya so'ragan har qanday axborotni taqdim etishga majbur.

11-modda.

Muassasa faoliyatini tugatish

11.1. Muassasa faoliyatini tugatish – uni qayta tashkil qilish yoki tugatish shaklida amalga oshiriladi.

Muassasa qayta tashkil qilinganida uning huquq va majburiyatlari huquqiy vorisga o'tadi.

Muassasa quyidagi xolatlarda tugatilishi mumkin:

- Assotsiatsiyaning ta'sis xujjatlarida tegishli huquq berilgan Assotsiatsiya boshqaruv organining qarori bo'yicha;
- Amaldagi qonunchilikda belgilangan holatlarda.

11.2. Muassasani tugatish uchun Ta'sischi 5 ta a'zodan iborat tarkibda tugatish komissiyasini tayinlaydi.

11.3. Tugatish komissiyasi tugatish balansini tuzadi va tasdiqlash uchun Assotsiatsiyaga taqdim etadi.

11.4. Mulk va pul mablag'lari Assotsiatsiyaga o'tadi.

12-modda.

Mexnatga haq to'lash va mexnat jamoasining ijtimoiy kafolatlari

12.1. Muassasa O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan fuqaro huquqlariga rioya etgan holda moliyaviy mablag'ning mavjudligidan kelib chiqib, mexnatga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish shakllari va miqdorlarini, ishga qabul qilish va bo'shatish va boshqa mexnat shartlarini mustaqil belgilaydi.

13-modda.

Atrof muhit muhofazasi

13.1. Muassasa o'z faoliyati jarayonida O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha me'yoriy aktlari talablariga rioya qiladi.